

# Yashil

IQTISODIYOT  
TARAQQIYOT  
va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4

No 2



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'sratish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# **Yashil** IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinosari:**

**Karimov Norboy G'aniyevich**

*Elektron nashr. 598 sahifa.*

*E'lion qilishga 2024-yil 29-fevralda ruxsat etildi.*

**Muharrir:**

**Qurbanov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinosari

**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

**Axmedov Sayfullo Normatovich** i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

**Xudoqulov Sadirdin Karimovich**, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

**Abduraxanova Guinora Kalandarovna**, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, i.f.d., TMI professori

**Samadov Asqarjon Nishonovich**, i.f.n., TDIU professori

**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori

**Axmedov Ikrom Akramovich**, i.f.d. TDIU professori

**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor

**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, i.f.d., TDIU professori

**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori

**Musyeva Shoira Azimovna**, SamDu IS instituti professori

**Axmedov Javohir Jamolovich**, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinosari

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi

**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti

**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti

**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, i.f.f.d., TDIU dotsenti

**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Uteyev Uktam Choriyevich**, O'zR Bosh prokururasi boshqarma boshlig'i o'rinosari

**Ochilov Farxod**, O'zR Bosh prokururasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi

**Ekspertlar kengashi:**

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti

**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti

**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti

**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi,  
O'zR Bosh prokururasi huzuridagi IJQK departamenti.



# MUNDARIJA

Ilm-fanga baxshida umr .....	8
<b>Baxtiyor Islamov</b>	
Kichik biznesni rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotni keng tatbiq qilishning ahamiyati .....	10
<b>Gulnora Abdurahmonova Kalandarovna, Sanjar Baxodirovich G'oipnazarov</b>	
Brand Capital as a Determinant of Institutional Prestige and Student Choice in the Higher Education System ...	16
<b>Zufarova Nozima Gulamiddinovna</b>	
Inson va atrof-muhit dialektikasi: nomutanosiblik ko'rsatkichlari va ekologik muammolar .....	24
<b>Butaboyev Maxammadjon Tuychiyevich, Maxmudov Nosir Maxmudovich</b>	
Yashil budgetlashtirish va uni O'zbekistonda joriy etish istiqbollari .....	30
<b>Meyliev Obid Raxmatullayevich, Gofurova Kamola Xayrulla qizi</b>	
Iqtisodiyotda ta'lim va fan integratsiyasining asosiy yo'nalishlari .....	35
<b>Yormatov Ilmidin Toshmatovich</b>	
Transport vositalari va yo'llar turizm transport infratuzilmasini rivojlantirishning muhim omilidir .....	39
<b>Agzamov Shaxboz Akmalovich</b>	
Bank xizmatlarini raqamlashtirish orqali samaradorligini oshirish .....	44
<b>A. X. Salamov</b>	
Biznes-reja baliqchilik xo'jaligi rivojlanishi uchun asos sifatida .....	48
<b>Dosmuratova Shaxista Kengashovna</b>	
Mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va uning lizing munosabatlari rivojlanishi bilan bog'liqligi .....	55
<b>Axmediyeva Aliya Toxtarova</b>	
Turizmni rivojlantirish imkoniyatlari .....	63
<b>Ziyadullayev Ilhom Narkabilovich</b>	
Tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligini oshirish muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari.....	67
<b>Shamsiyev Nodir Muratovich</b>	
Hududlarni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish masalalari.....	72
<b>Shagazatov Oybek bahodirovich</b>	
Hududlar biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarish yo'nalishlari .....	76
<b>Davlatov Sanjar Abdimannonovich</b>	
Ijtimoiy rivojlanish xulq-atvor paradigmasida yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning nazariy asoslari .....	80
<b>Mirzatov Baxtiyor Toxirovich</b>	
Korxonalar innovatsion faoliyatida raqamli transformatsiyaning muhim yo'nalishlari .....	84
<b>Yuldasheva Kamola Miraliyevna</b>	
O'zbekistonda agroturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida) .....	89
<b>Yoriyeva Farangiz Murodillayevna</b>	
Innovatsion tadbirkorlik muhitini kompleks baholashda xalqaro tashkilotlar tajribasi.....	94
<b>Nazarova Umida Avazovna</b>	
Turizm faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini oshirishning ayrim usullari .....	98
<b>Mirzaxodjayev Alisher Botirovich</b>	
Globallashuv sharoitida transchegaraviy suv resurslardan samarali foydalanishni boshqirish .....	103
<b>Mirzayev Musurmon Umidullayevich</b>	
Surxondardon viloyati iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlikning o'rni va ahamiyati .....	108
<b>Fayziyeva Aziza Azamat qizi</b>	
Ta'lim muassasalarida xarajatlarni moliyaviy nazorat etishning samaradorligi tahlili .....	113
<b>Eshonqulov Davlatjon Rajabboyevich</b>	
Ta'minot zanjirini boshqarishda transport logistikasi usullarini takomillashtirish .....	119
<b>Zoxidova Nazokat Berdimurot qizi</b>	
Blokcheyn texnologiyasida xavfsizlik masalalari .....	123
<b>Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich</b>	
Razvitiye cifrovoy tansformatsii bankovskogo sektora Respublikи Uzbekistan .....	129
<b>Abdurahmanova Matluba Mahamadaminovna</b>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ



Asosiy fondlarni hisoblash va baholash usullarini takomillashtirish istiqbollari.....	135
<b>Rixsimbayev Odiljon Qobiljonovich</b>	
Marketingda tovar harakati tizimini optimallashtirish va modellashtirish.....	141
<b>Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Kamola Abdujabborovna Pardayeva</b>	
Iqtisodiy rivojlanish uchun strategik taqsimlash strategiyalari:	
Investitsion Fond Portfellarning qiyosiy tahlili.....	148
<b>Sultonboeva Munira bahodirovna</b>	
Soliq munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati: ilmiy-nazariy qarashlar.....	154
<b>Axrorov Zarif Oripovich, Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li</b>	
Vzaimosvazъь инвестиционной стратегии с оценкой эффективности инвестиционного проекта .....	159
<b>С. С. Алиева, А. Назаров</b>	
Erkin iqtisodiy zonalarning faoliyati va boshqaruv mexanizmini takomillashtirish.....	167
<b>Sheraliyeva Saida Azatovna</b>	
Xizmat safari xarajatlari hisobining huquqiy asoslari .....	170
<b>Ergashev Sarvar Xudoynazarovich</b>	
Инклюзивное образование и его особенности.....	175
<b>Зайнутдинова Умидा Джалоловна</b>	
Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash va undirish samaradorligini oshirish yo'llari.....	179
<b>Qurbanov Muxiddin Abdullayevich</b>	
Mamlakatda soliq qarzdorligi vujudga kelishining asosiy sabablari va ularni qisqartirish yo'llari.....	184
<b>Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li</b>	
Mulk qiymatini baholash tushunchasi, baholash obyektlari, baholanadigan qiymat turlari.....	188
<b>Izbosarov Boburjon Bahriiddinovich, Yoqubboyev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li</b>	
O'zbekistonda sug'urta xizmatlarining zamonaviy transformatsiyasi.....	193
<b>G. Adilova</b>	
Biznes subyektlarida samaradorlik masalalarini o'yinlar nazariyasi usuli bilan baholash.....	197
<b>Mardiiev Nurali</b>	
Yengil sanoatda "lean production" konsepsiyasini tatbiq etishning amaliy jihatlari.....	203
<b>Yaxyayeva Inobat Karimovna</b>	
Soliq salohiyatini baholash usullari va ularning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'siri tahlili .....	207
<b>Borotov Sharofiddin Jumaqul o'g'li</b>	
Ko'chmas mulk bozorini baholashning institutsional asoslari .....	213
<b>Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.....	221
<b>Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna</b>	
O'zbekistonning bank-moliya tizimi hamda unda Islom moliyasi instrumentlarini jalb etishdagi joriy tendensiyalar .....	226
<b>Eshimov Alisher Dusmurodovich</b>	
Tashqi savdoda notarif usullarni qo'llashning iqtisodiy oqibatlarini aniqlash metodologiyasi (rivojlangan davlatlar tajribasi) .....	234
<b>Norqobilov Akobir Iso o'g'li</b>	
Reklama xizmatlari va uning subyektlar samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari.....	240
<b>Rabbimov Elbek Abdulloyevich</b>	
Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda sog'lioni saqlash tizimini moliyalashtirish asoslari .....	245
<b>Imonqulov Nuriddin Qo'shmon o'g'li</b>	
Tijorat banklari biznes ekotizimini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	250
<b>Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li</b>	
Majburiy tibbiy sug'urtaning vujudga kelishi va o'ziga xos xususiyatlari.....	256
<b>Kenjayev Soxib Sayfiyevich</b>	
O'zbekiston Respublikasida zamonaviy soliq ma'murchiligini joriy etish orqali budget-soliq siyosati samaradorligini yanada oshirish.....	260
<b>Yuldasheva Shaxnoza Xojiakbar qizi</b>	
Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida derivativlar bozorining roli .....	266
<b>Shokirov Mirkamol Mirolim o'g'li</b>	
Boshqaruv hisobida mas'uliyat markazlarini tashkil etish masalalari.....	274
<b>Sobirov Otabeck Olimjonovich</b>	



Davlat moliyasini boshqarishda moliyaviy nazorat usullaridan samarali foydalanish yo'llari .....	277
<b>Kultayev Farxod Shavkatovich</b>	
Tijorat banklari foydasi va rentabilitik ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar tahlilini takomillashtirish .....	281
<b>Normo'minov Temurbek Sheraliyevich</b>	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari aktivlar sifatini oshirish yo'llari .....	284
<b>To'ychiyev Otabek Shamshihevich</b>	
Vençur kapitalining mohiyati va O'zbekistonda vençur tizimini rivojlantirishning institutsional asoslari.....	288
<b>Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna</b>	
Innovatsiyalar: zamonaviy iqtisodiyot uchun innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash zarurati.....	293
<b>Malikova Dilrabo Muminovna, Tursunov Jahongir Ulug'bek o'g'li</b>	
Budjet daromadlarining shakllanishida egri soliqlarning ta'sirini ko'p omilli ekonometrik modellashtirishda tahlil qilish.....	297
<b>Abdunazarova Shahnoza Norqo'chqor qizi</b>	
Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion jozibadorlikni oshirish yo'llari.....	302
<b>Abdullahayev Boburjon Akbaralievich</b>	
Barcha tadbirkorlik subyektlariga teng raqobat sharoitini yaratishda soliq imtiyozlarining o'rni .....	306
<b>Akbarov Akmalxon Akrom o'g'li</b>	
Hisob siyosati va unda biologik aktivlar hisobini yoritib berish tartibini takomillashtirish .....	310
<b>Mirzayeva Nargiza Batirovna</b>	
Talabalarning oilali bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baholashda yangicha yondashuv.....	314
<b>O. U. Shomurodov, A. A. Suyarov, Z. U. Uroqov, J. S. Urazov, A. T. Ablahatov</b>	
Ways to Use the Experience of Foreign Countries in Creating a Beneficial Business Environment for Entrepreneurship And Improving Taxation .....	319
<b>Mukhlisa Ikramova</b>	
Aholi turmush darajasini oshirishda moliyaviy savodxonlikning o'rni va iqtisodiy rivojlanishga ta'siri .....	325
<b>Yusupov Muhammadali Sohib o'g'li, J.D. Xojiyev</b>	
Temir yo'l sanoat korxonalarida ijtimoiy-mehnat munosabatlarini boshqarish bo'yicha xorijiy tajriba.....	329
<b>Kadirova Sharofat Amonovna</b>	
Механизм внедрения аутсорсинговой деятельности в АО "Ўзтемирийўлайўловчи" .....	332
<b>H. З. Кахарова</b>	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish investitsiyalarni jalb qilishda xorijiy mamlakatlar tajribasi .....	337
<b>Sharipov Bobur Anvar o'g'li</b>	
"STEKLOPLASTIK" MJCHning bozordagi strategik holatini tahlil qilish .....	342
<b>Musyeva Shoiria Azimovna</b>	
Agrar sektorda ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishning nazariy masalalari.....	348
<b>M. Sh. Nazarova, Z. S. Kazakova</b>	
Methodological Foundations of Bank Lending and Classification of Factors Affecting the Features of Obtaining Loans.....	353
<b>Raxmanova Laylo bahodirovna, A. Karimova</b>	
Agrosanoat klasterlarda tovar-moddiy zaxiralar samaradorligiini KPI orqali baholash uslubiyati .....	357
<b>Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich</b>	
Fao tadbirkorlar faoliyatida kambag'al oilalarni iqtisodiy-ijtimoiy holatini yaxshilash imkoniyatlari .....	362
<b>Salamov Ibrohim, Nazarova Maryam Sharifovna, Kazakova Zulayxo Saloxiddinovna, Jonibekov Faxriddin Beknazarovich, Kudratov Rizo Turdibayevich, Ulmasova Oygul Baxtiyorovna, Xamdamova Nasiba Ablakulovna, Xudayberdiyeva Ma'rifikat Umarovna</b>	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar strategiyasi tahlilining o'ziga xos xususiyatlari .....	369
<b>Tursunova Shaxnoza Farxod qizi</b>	
Процессы цифровизации АО "Худугазта'minot" .....	373
<b>Хусанов Каҳрамон Нишонович</b>	
O'zbekistonda aholi turmush darajasini oshirish yo'llari.....	378
<b>Abdullahayeva Madina Kamilovna, Eldorbekov G'ofurbek Iskandarbek o'g'li</b>	
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik subyektlari uchun kredit tizimini takomillashtirish mexanizmi .....	381
<b>Bobayev Isroijon Abdinabiyevich</b>	
Mamlakatga jalb qilingan xorijiy kapitalning tovarlar va xizmatlar importi salohiyatiga ta'sirini ekonometrik modellar bilan baholash.....	386
<b>Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li</b>	



O'zbekistonda bank xizmatlari raqobatbardoshligini baholash mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari.....	394
<b>Sh. Madraimov</b>	
Kapital bozorida sug'urta kompaniyalar institutsional investor sifatida .....	397
<b>Xasanova Lola Mamasharifovna</b>	
Yangi O'zbekiston strategiyasida institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish va ko'p funksiyali raqamlashtirishning ilmiy asoslari .....	400
<b>B. B. Berkinov</b>	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari orqali jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish mexanizmlari.....	409
<b>G'afurov Umidjon Bahodir o'g'li</b>	
Rivojlangan mamlakatlarda keksa fuqarolarning bandligini oshirish kam ta'minlangan aholi qatlamini qo'llab-quvvatlash usuli sifatida (Yaponiya tajribasi misolida).....	413
<b>Karimov Bekzodjon Ilhomovich</b>	
Tashqi savdoni oshirishda boj-tarif siyosatini takomillashtirish mexanizmlari .....	420
<b>Pardayev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li</b>	
Финансы или корпоративные финансы .....	426
<b>Уринов Бобур Насиллоевич</b>	
In Ensuring Economic Development in the Country Green Economy and its Features .....	432
<b>Akhunova Shakhistikhon Nomonjanovna, Abdusattorova Mokhirabonu Abdugovpor kizi</b>	
Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari .....	437
<b>Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li</b>	
Сокращение уровня бедности в Узбекистане.....	443
<b>Амирджанова Ситора Суннат кизи</b>	
Paxtachilik sohasida ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirishning innovatsion yechimlari va uning foydaga ta'sirini baholash .....	448
<b>S. B. Inoyatov</b>	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishslash amaliyotidagi muammolar va ularni barataraf etish yo'llari .....	453
<b>Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li</b>	
Mahalliy budjet daromadlarining nazariy va ilmiy asoslari .....	460
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna</b>	
Kambag'allikni qisqartirish – aholi turmush farovonligini ta'minlashning muhim omili .....	463
<b>Usmanov Baxodir Baxtiyorovich</b>	
Raqamli marketingni rivojlantirish zaruriyatি .....	469
<b>Xalmuxamedova Zeboxon Babaxanova</b>	
Tijorat banklari o'rtaqidagi raqobatni rivojlantirish orqali fond bozorida aksiyalar narxini barqarorligini ta'minlash istiqbollari .....	473
<b>M. Yuldasheva</b>	
Konchilik sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmlarining ilmiy-nazariy asoslari .....	480
<b>Kurbanova Mehriniso Nematjanovna</b>	
O'zbekistonda banklar moliyaviy xizmatlari va ular sifatining amaldagi holati tahlili .....	487
<b>Mirzayev Mirza Abdullayevich</b>	
Oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy samaradorlikning raqobatbardoshligini instituttsional tahlil qilish mexanizmi .....	492
<b>Saydullayeva Saodat Abdumajidovna</b>	
Integrasiya sharoitida to'qimachilik sanoatining rivojlanishi .....	499
<b>Ziyayeva Muhtasar Mansurdjanovna</b>	
Auditorlik tekshiruvini tashkil etish va o'tkazish jarayonlarini takomillashtirish .....	503
<b>Karamatova Noiba Husnitdinovna</b>	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlari .....	510
<b>Mamatov Mamajan Axmadjonovich</b>	
Экономическое сознание и экономическое мышление: теоретический анализ.....	517
<b>Пардаев Мамаюнус Каршибаевич, Мухаммедов Мурод Мухаммадович</b>	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklari tomonidan qurilish korxonalarini kreditlashni takomillashtirish yo'llari .....	522
<b>Sultanov Baxram Begdullayevich</b>	



Роль искусственного интеллекта в современных технологиях медиаобразования в высших учебных заведениях.....	526
Самигова Гуландом Абдулжаббаровна	
Talabalarga moliyaviy yordam dasturlari va ularning ta'lrim sifatiga ta'siri .....	534
Mirzayeva Muhlisa Ubaydullo qizi	
Mintaqaviy investitsion jozibadorlik va investitsion siyosat: nazariy talqin .....	539
Muminov Akmal Tulkunovich	
Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida oliy ta'lim tizimining ta'siri .....	543
Nasimov Adiz Azamat o'g'li, Baxtiyorova Jasmina Jasurovna, Axrorov Zarif Oripovich	
Respublikada fermer xo'jaliklarga xizmat ko'rsatishni rivojlantirish va agroizmatlar bozorini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari .....	548
Shukurov Ilxom Safarboyevich	
Turli mamlakatlarda oliy ta'limni moliyalashtirish yo'llari .....	555
Umarova Moxigul Maxmayunus qizi	
Dehqonchilikni innovatsion asosda rivojlantirishning xorijiy tajribasi .....	560
Yuldashev G'iyos Turabekovich	
Tijorat bank xizmat turlarini islomiy bank xizmatlari orqali rivojlantirish istiqbollari .....	564
Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna	
Qishloq xo'jaligi mahsulotini baholash va hisobga olishning uslubiy jihatlarini takomillashtirish .....	570
Boltayev Abror Sayitmuradovich	
Секреты интересного урока в начальной школе.....	577
Гараева Олеся Владимировна	
Iqtisodiyotni barqaror rivojlanishda yashil iqtisodiyotning o'rni.....	580
Ibragimova Gulchehra Toxirovna	
Mahsulot va xizmatlarni raqamli transformatsiyasini amalga oshirish algoritmi.....	584
Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, Bobojonov Azizjon Babaxanovich, Abdurakhmonov Abdumalik Abdurashidovich	
O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi mamlakatda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish vositasi sifatida.....	591
Nabiiev Feruz Nurmurodovich	



# MULK QIYMATINI BAHOLASH TUSHUNCHASI, BAHOLASH OBYEKTTLARI, BAHOLANADIGAN QIYMAT TURLARI



**Izbosarov Boburjon Bahriiddinovich**

I.f.d, professor

**Yoqubboyev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li**

Toshkent moliya instituti, budjet hisobi va g'aznachilik fakulteti, 3-kurs BBI-90 guruh talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada mulk qiymatini baholash tushunchasi, baholash obyektlari (ko'chmas mulk, ko'char mulk, qimmatli qog'ozlar, zargarlik buyumlari, biznes baholash va hokazolar), baholanadigan qiymat turlari va shu bilan birga baholash mulkka qo'yiladigan baholar haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Ushbu maqolada hozirgi kunda rivojalanayotgan sohalardan biri – baholash ishi yo'nalishiga mos keluvchi ilmiy izlanishlar olib borilgan.

**Kalit so'zlar:** baholash, baho, ashylar, intellektual mulk obyektlari, bozor qiymati, adolatli qiymat, investitsiya qiymati, sinergetik qiymat, tugatish qiymati, yo'q qilish qiymati, almashtirishning qoldiq qiymati, takror ishlab chiqarish qoldiq qiymati, maxsus qiymat, sug'urtaga oid qiymati, soliqqa oid qiymat.

**Abstract:** This article provides information on the concept of property value assessment, objects of assessment (real estate, movable property, securities, jewelry, business valuation, etc.), types of value to be assessed, and, therefore, assessments to be made on the property. This article has been carried out scientific research corresponding to the direction of the assessment work, which is considered one of the areas that are currently developing.

**Key words:** valuation, valuation, items, intellectual property objects, market value, fair value, investment value, synergistic value, termination value, disposal value, replacement residual value, reproduction residual value, special value, insurance-related value, tax-related value.

**Аннотация:** В данной статье приводится понятие оценки стоимости имущества, информация об объектах оценки (недвижимость, движимое имущество, ценные бумаги, ювелирные изделия, оценка бизнеса и т.д.), о видах оцениваемой стоимости, а вместе с тем и об оценках, по которым проводится оценка имущества. Настоящая статья посвящена научным исследованиям, соответствующим направлению оценочной работы, которое в настоящее время считается одной из развивающихся областей.

**Ключевые слова:** оценка, предметы, объекты интеллектуальной собственности, рыночная стоимость, справедливая стоимость, инвестиционная стоимость, синергетическая стоимость, ликвидационная стоимость, ликвидационная стоимость, остаточная стоимость замены, остаточная стоимость воспроизведения, специальная стоимость, страховая стоимость, налоговая стоимость.



## KIRISH

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti islohotlari bosqichma-bosqich olib borilishi, mulk shakkulari o'zgarishi jarayonida shakklangan mulk bozorida baholash faoliyatining shakklanishi va rivojlanishiga bozor munosabatlari taraqqiyoti sabab bo'ldi. Demak, davlat bozor iqtisodiyoti tizimiga o'tishi bilan tasarruffidagi mol-mulkni xalqqa, jamoalarga, hamda individual shaxslarga bera boshladi. Buning negizida esa ushbu mulkni baholash va uni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish zarurati paydo bo'ldi. Ayni damda ushbu zarurat mulk qiymatini baholash faoliyatining rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Baholash tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo'lib, mulkni, ya'ni bino va inshootlarni, mashina va uskunalarini, transport vositalarini, qolaversa, insonning salohiyatidan tortib, yer yuzidagi barcha narsalarga baho berishdan iborat.

Metod. Vatanimiz olimlaridan I.Yu. Abduraxmanov, R.X. Alimov, B.B. Berkinov, K.B. Ganiyev, G.I. Ganiyeva, A.N. Kravchenko, B.Yu. Xodiyev, N. To'ychiyev, A. Mirxoshimov, K. Plaxtiy, Sh. Shoha'zamiy<sup>[4]</sup> va boshqalarning ishlarida ko'chmas mulk qiymatini baholashning nazariy-metodologik asoslari va baholashning daromadli, xarajatli va qiyosiy yondashuvlari tahlil qilingan va baholash haqida hisobot tayyorlashning metodologik asoslari ko'rib chiqilgan. Iqtisodchi olimlarning tahlillariga ko'ra, ko'chmas mulk obyekti narxlari dinamikasi talab va taklifning o'zaro nisbati va shu kabi boshqa bozor qonunlari ta'siri ostida shakllanadi. Turli toifadagi ko'chmas mulk, xususan, noturar joylar qiymatini aniqlash baholanayotgan obyektning o'ziga xos xususiyatlari ko'pligi, shu bilan birga mulkni baholashga ta'sir ko'rsatuvchi turli omillar bilan belgilanuvchi g'oyat murakkab va ko'p mehnat talab qiluvchi jarayon hisoblanadi<sup>[7]</sup>.

Natijalar. Hozirgi kunda baholash sohasini rivojlantirish hamda uni yanada takomillashtirish ishlari olib borilmoqda. Project.gov.uz saytidagi (23.12.2023 holatiga ko'ra) e'longa ko'ra "Baholash faoliyi to'g'risida"gi qonun tahrirlanib, hozirda 9-bob (avvalgi tahrirda boblarga ajratilmagan edi), 57-moddani (avvalgi tahrirda 22-moddadan iborat edi) tashkil qilmoqda. Xususan, bu qonunning 6-bobi, 29, 30 va 31- moddalarida baholash obyektlari, baholash obyektlarining qiymat turlari hamda baholash obyektining bozor qiymati to'g'risida tegishlicha ma'lumotlar keltirib o'tilgan<sup>[1]</sup>.

"Baholash" (appraise) fe'li, bir necha xil ma'noga ega. U narxni aniqlash, qiymatni belgilash, miqdorni baholash, biror bir narsaning sifati qadr-qimmati haqida xulosa chiqarish kabi ma'nolarni anglatadi.

Baholovchilar amal qiladigan baholash jarayoni barcha ma'nolarni qamrab olishi tufayli baholovchi nafaqat baholanayotgan obyektning qimmatini aniqlaydi, balki qiymatni aniqlash uchun miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari belgilaydi.

"Baho" (appraisal) atamasi ham qo'yilgan shart va maqsad mazmuniga qarab bir necha ma'noga ega bo'lishi mumkin. U baholash bo'yicha harakatni, yoki qiymat haqidagi xulosani yoxud tadqiqotlar natijalarini taqdim etilgan hisobotni anglatishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, baholash faoliyatida qo'llaniladigan baho va baholash atamasiga quyidagi ta'rif qabul qilindi:

Baholash – umumiyligida qabul qilingan tartiblarga mos keluvchi va baholashning umumiyligida qabul qilingan tamoyillarining qo'llanilishi bilan bajariladigan, tegishli tadqiqot yo'li bilan qiymatni belgilash san'atidir;

Baho – bu obyektni batafsil o'rganishga asoslangan qiymat haqidagi fikrdir.

Baholash obyektlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- alohida moddiy obyektlar (ashyolar);
- shaxsning mol-mulkini tashkil etuvchi ashyolar majmuyi, shu jumladan muayyan turdag'i (ko'char yoki ko'chmas) mol-mulk;
- mol-mulkka yoki mol-mulk tarkibidagi ayrim ashyolarga mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar;
- talab qilish huquqlari, majburiyatlar (qarzlar);
- ishlar, xizmatlar, axborot;
- intellektual mulk obyektlari va qonunchilikka fuqarolik muomalasida bo'lishi mumkinligi belgilangan boshqa fuqarolik huquqlari obyektlari.

Ashyolar (mulk) – baholash maqsadlari uchun ko'chmas va ko'char mulk (ashyolar)ga ajratiladi.

Ko'chmas ashyolar (ko'chmas mulk) jumlasiga yer uchastkalari, yer osti boyliklari, alohida ajratilgan suv obyektlari va yer bilan uzviy bog'langan barcha narsalar, ya'ni yerga birlashgan hamma obyektlar, yer ustisi va yer osti qurilmalari, inshootlarga uzoq muddatga birlashtirib qo'yilgan, biriktirib qurilgan, belgilangan maqsadiga nomutanosisib zarar yetkazmagan holda joyidan ko'chirish mumkin bo'lmagan obyektlar, shu jumladan o'rmonlar, ko'p yillik dov-daraxtlar, binolar, inshootlar kiradi.

Ko'chmas mulkka kirmaydigan ashyolar, shu jumladan qimmatli qog'ozlar ko'char mulk, deb tan olinadi.

Intellektual mulk jumlasiga quyidagilar kiradi:

1. Intellektual faoliyat natijaları:
- fan, adabiyot va san'at asarlari;



- ijrolar, fonogrammalar va namoyish etuvchi tashkilotlarning ko'rsatuvlari;
  - elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari;
  - ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari;
  - seleksiya yutuqlari;
  - oshkor etilmagan axborot, shu jumladan ishlab chiqarish sirlari (nou-xau);
2. Fuqarolik muomalasi qatnashchilar, tovarlar, ishlar va xizmatlarni shaxsiylashtirish vositalari:
- firma nomlari;
  - tovar belgilari (xizmat ko'rsatish belgilari);
  - tovar chiqarilgan joylar nomi;
3. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa intellektual faoliyat natijalari va fuqarolik muomali si qatnashchilar, tovarlar, ishlar va xizmatlarni shaxsiylashtirish vositalari.

Ashyoviy huquqlar (mulk huquqi) – ashayoviy huquqlarga ko'char va ko'chmas mulk huquqlari, shu jumladan: mulk huquqi, xo'jalik yuritish huquqi, operativ boshqarish huquqi, ishonchli boshqarish huquqi, merosga umrbod egalik qilish huquqi, doimiy (muddatsiz) foydalanish huquqi, ijara, ipoteka, servitutlar kiradi. Ko'chmas mulkka huquqlarni baholash maqsadi uchun faqat ularning yuzaga kelishi, boshqa shaxsga o'tishi va bekor qilinishi davlat ro'yxatidan o'tishi sharti bilan qayd etiladi. Ko'char ashayolarga huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish talab etilmaydi, qonun hujjatlarida maxsus belgilangan hollar bundan mustasno.

Majburiyatlar – shartnomadan kelib chiqqan holda zarar yetkazilganligi oqibatida yoki fuqarolik qonunchiligidagi belgilangan boshqa asoslar tufayli muayyan harakatlarni sodir etish yoki sodir etmaslik bo'yicha, shu jumladan mulkni berish, ishlarni bajarish, pul berish, shuningdek, mulkni berish (mulkni yollash) bo'yicha bir shaxsning majburiyati yoki boshqa shaxsning talab huquqi baholash obyekti bo'lishi mumkin.

Baholash maqsadida korxona (biznes) – tadbirdorlik faoliyatini, odatda, tashkilot (yuridik shaxs) faoliyati doirasida amalga oshirish uchun foydalaniladigan mulkiy majmuani anglatadi.

Korxona (biznes) tarkibiga uning faoliyati uchun mo'ljallangan barcha mulk turlari, shu jumladan, ko'char, ko'chmas mulk, nomoddiy aktivlar, mulk huquqlari, talab huquqi, majburiyatlar va kapital kiradi.

Ko'char va ko'chmas ashayolar, shuningdek, ashayoviy huquqlar hamda talab huquqi basharti avvalgi voqe-hodisalar natijasida ular tashkilot boshqaruvida bo'lsa hamda kelajakda ulardan tashkilot uchun iqtisodiy foydalar oqimi kutilayotgan bo'lsa, tashkilot aktivlari hisoblanadi va tashkilotning moliyaviy (buxgalteriya) hisobotida aks ettiriladi.

Baholash obyekti qiymatining turlari baholash maqsadlariga qarab baholash obyekti xususida bozor qiymati yoki bozordan farqlanuvchi qiymat qo'yiladi. Baholash obyekti qiymati turlarining qo'llanish sohasi va ularning farqlanuvchi xususiyatlarini baholash standartlari bilan belgilanadi. Baholash obyektini baholash pul shaklida amalga oshiriladi.

Qiyat turlariga quyidagilar kiradi:



1-rasm: Qiymat turlari<sup>2</sup>

<sup>2</sup> Qiymat turlari.



“Bozor qiymati” tushunchasiga O’zbekiston Respublikasining “Baholash faoliyati to’g’risida”gi Qonunida quyidagicha ta’rif berilgan: “Baholash obyektining bozor qiymati asosida ehtimoliy narx tushunilib, unga ko’ra mazkur baholash obyektining ochiq bozorda raqobat sharoitida, bitimning taraflari barcha zarur axborotga ega bo’lgan holda o’z manfaatlari yo’lida oqilona va ixtiyoriy ravishda harakat qiladi, bitim narxining baland-pastligida esa biron-bir favqulodda holatlar, shu jumladan taraflardan birining ushbu bitimga qo’shilish majburiyati aks etmaydi”<sup>[1]</sup>.

Agar biron-bir baholash obyektni baholashda majburiy o’tkazish talabi mavjud normativ hujjatda yoki baholash obyektni baholash to’g’risidagi shartnomada qiymatning aniq turi ko’rsatilgan bo’lmasa, mazkur obyektning bozor qiymati belgilanishi lozim. Mazkur qoida normativ hujjatda baholash obyekti qiymatining turini aniqlovchi O’zbekiston Respublikasining “Baholash faoliyati to’g’risida”gi Qonunida yoki O’zbekiston Respublikasining Yagona milliy baholash standartida nazarda tutilmagan atamalarda foydalanilgan taqdirda ham qo’llanishi kerak<sup>[5]</sup>.

Adolatli qiymat deganda aktiv, aniq belgilangan va barcha zarur axborotga ega bo’lgan manfaatdor taraflar o’rtasida ayriboshlanganda (mulk sotilganda yoki qarzdorlik hisobdan chiqarilganda) ushbu taraflarning manfaatlarini aks ettiradigan, hisoblab chiqiladigan – baholanadigan pul miqdori tushuniladi.

Adolatli qiymatni aniqlash qat’iy belgilangan taraflar o’rtasida ushbu taraflarning har biri bitimdan ko’radigan afzalliklari yoki salbiy tomonlarini hisobga olgandaadolatli bo’ladigan xuddi shunday pul miqdorini baholashni talab qiladi.

Bunda bozor qiymatini aniqlashda, odatda, umumiylisobda bozor ishtirokchilariga xos bo’lmaydigan yoki ular foydalana olmaydigan barcha afzalliklar yoxud salbiy holatlar hisobga olinmaydi.

Adolatli qiymat bozor qiymatiga qaraganda ancha kengroq tushuncha bo’lib, garchi taraflar o’rtasidagi bitimdaadolatli baho bozordagi ehtimoliy bahoga teng bo’lsa-da, shunga qaramay, shunday vaziyatlar yuzaga kelishi mumkinki,adolatli qiymatni aniqlashda bozor qiymatini aniqlashda e’tiborga olinmaydigan jihatlar, masalan, moddiy manfaatdorlikni uyg’unlashtirganda yuzaga keladigan sinergetik qiymatning ba’zi bir jihatlari e’tiborga olinishi zarur bo’ladi.

Investitsiya qiymati deganda aktivning aniq egasi yoki potensial egasi uchun ularning xususiy investitsiyaviy yoki operatsion (xo’jalik) maqsadlari hisobga olinadigan qiymat tushuniladi.

Investitsiya qiymati subyektiv o’ziga xos baholash bazasidir. Aktiv qiymati sohibi uchun uni boshqa tarafga sotganda ehtimoliy olinuvchi miqdorga teng bo’lsa-da, ushbu baholash bazasida iqtisodiy subyekt aktivga egalik qilishdan va tegishlichka aktiv bilan hech qanday al mashuv mo’ljallanmasdan erishiladigan foydalar aks ettiriladi.

Investitsiya qiymatida iqtisodiy subyektning moliyaviy holati va baholashni bajarishdan moliyaviy maqsadlari aks ettiriladi. Bu qiymatdan ko’pincha investitsiyalar samaradorligini aniqlash uchun foydalaniladi.

Sinergetik qiymat ikki va undan ortiq aktivlar yoki ishtirokchilikdagilulushlarning birlashtirilishi natijasida qiymatning umumiyligindisi summasi ularning alohida-alohida olingan qiymatlari summasidan ortiq bo’lib chiqqanda hosil bo’ladi.

Faqat aniq xaridor sinergik samarani qo’lga kirtsan, sinergik qiymat bozor qiymatidan farqlanadi, chunki sinergik qiymatda aktivning faqat aniq xaridor uchun qimmatga ega bo’lgan aniq tafsiflari aks etadi.

Tugatish qiymati deganda aktiv yoki aktivlar guruhini qismlarga bo’lib-bo’lib sotib yuborganda olinishi mumkin bo’lgan summa tushuniladi. Tugatish qiymatida aktivlarni sotishga tayyorlash xarajatlari hamda sotish bo’yicha xarajatlarini hisobga olish kerak.

Tugatish qiymatini baholashni o’tkazishning quyidagi shartlaridan foydalanib aniqlash mumkin:

- odatiy marketing davrida tartibga solingen bitim;
- marketing davrini qisqartiruvchi majburiy bitim.

Baholovchi baholash amaliyotining mo’ljallanayotgan shart-sharoitlarini ko’rsatishi shart.

Yo’q qilish qiymati – baholash obyektning uni tashkil etgan materialarning bozor qiymatiga teng qiymatini anglatadi. Bu qiymat yalpi yoki sof qiymat (sotish xarajatlarini chegirgan holda) shaklida ifodalanishi mumkin.

Almashtirishning qoldiq qiymati deganda baholash obyektniga o’xshash obyektni yaratish xarajatlarini baholash sanasida mavjud bozor narxlaridagi baholash obyektning eskirishini hisobga oluvchi qiymati tushuniladi.

Takror ishlab chiqarish qoldiq qiymati deganda baholash obyekti bilan bir xil obyektni bir xil materiallarnava texnologiyalardan foydalangan holda yaratishga sarflanuvchi, baholashni o’tkazish sanasida mavjud bozor narxlarida o’lchanadigan, baholash obyektning eskirishini hisobga oluvchi xarajatlar summasi tushuniladi.

Maxsus bozor qiymatidan ortiq summa bo’lib, faqat maxsus xaridor (alohida manfaatga ega bo’lgan) uchun qiymatga ega bo’lgan aktivlarning muayyan tafsiflari aks ettiradigan qiymat tushuniladi.

Sug’urtaga oid qiymat mulkning shartnomasi yoki sug’urta polisi qoidasida nazarda tutiladigan qiymatni anglatadi. Bunda shartnomasi yoki sug’urta polisi imzolangan kundagi sug’urta maqsadlari uchun mulkning haqiqiy qiymati aniqlanadi.



Soliqqa oid qiymat deganda amaldagi soliq qonunchiligi asosida hisoblab chiqiladigan qiymat tushuniladi. Bozor qiymatidan farqlanuvchi baholash bazalari asosida bajarilgan barcha baholash natijalari har xil farazlarni talab qiladi. Ular baholovchi tomonidan aniq identifikasiya qilinishi va baholash haqidagi hisobotga kiritilishi lozim. Ba'zi holatlarda baholashning tegishli muqobil bazasini ta'minlashning imkonи bo'lmaydi, bunday hollarda baholovchi baholashga oid vazifani o'zgartirishi lozim.

## XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Mulk qiymatini baholash, bir mulkning moliyaviy, iqtisodiy, ilmiy, ijtimoiy va boshqa ko'satkichlaridan kelib chiqqan qiymatlarini aniqlash jarayoni hisoblanadi. Bu baholash jarayoni moliya vaziri, moliyaviy institutlar, moliyaviy maslahatchilar, ekspertlar va boshqa mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Baholash obyektlari, moliyaviy, iqtisodiy va boshqa moliyaviy resurslarni o'z ichiga olgan mulk bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, moliyaviy baholash jarayonida biznes, transport, kommunikatsiya, energiya va boshqa sohalardagi infratuzilma obyektlari ham baholashga kiradi. Xususan, mulk qiymatini baholash usullari va kriteriyalari mamlakatlar, moliyaviy organlar va O'zbekistonning qonun hujjatlari asosida belgilanadi. Baholash jarayonida obyektivlik, nizomni buzmaslik, ma'lumotlarga kirish, qiymatni to'g'ri belgilash va boshqa tamoyillarga asosan baholanadi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Baholash to'g'risida"gi qonuni. 19.08.1999-yildagi 811-l-son. <https://lex.uz/ru/docs-24703>.
2. Shoha'zamiy Sh.Sh. "Bozor asoslari" darslik. –T.: "Fan-texnologiya", 2012.
3. Shoha'zamiy Sh.Sh. "Mulk nazariysi, qiymati va narxi". Monografiya. –T.: "Fan-texnologiya", 2012. – 264 bet.
4. Shoha'zamiy Sh.Sh. "Mulk nazariysi, qiymati va narxning nazariy asoslari," tanlangan ma'ruzalar –T.: "Iqtisod-moliya", 2015.
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktorining buyrug'i, 04.06.2020-yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3239. <https://lex.uz/ru/docs/-4842496>.
6. Yoqubboyev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li. Models and methods for increasing the efficiency of innovative research: xalqaro ilmiy konferensiyaning ilmiy ishlari to'plami (11 October, 2023). – Berlin., -2023. 27-soni. –215 bet. <https://interonconf.org/index.php/ger/article/view/7299>.
7. Xasanova Shaxnoza Toxir qizi. Noturar joylar qiymatini baholashning metodologik va amaliy masalalari nomli dissertatsiyasi. –Toshkent-2017. –108 bet.

# Yashi

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 2**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

**Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

